

Date: 3rd February-2026

OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI NAZORAT QILISHDA XIZMAT OTLARINI
PSIXOFIZIOLOGIK TAYYORLASH: STRATEGIK TAHLIL VA YANGI
METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Alimov Mansur Shavkatovich

Milliy gvardiya Samarqand viloyati bo'yicha boshqarmasi harbiy qism patrullik
otryadi kavaleriya guruhi komandiri kapitan

Annotatsiya: Ushbu maqolada ommaviy tartibsizliklarni nazorat qilishda xizmat otlarini psixofiziologik tayyorlashning strategik tahlili ko'rib chiqildi. Yangi metodologik yondashuvlarga asosan pirotexnika va olovga, turli chastotadagi shovqinlarga, rangli tutunlar yordamida otning vizual sensorlarini chiniqtirish, jonli devor shaklida harakatlantirish metodikasi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: psixofiziologik tayyorlash, strategik tahlil, metodologik yondashuv, jonli devor metodikasi.

Abstract: This article examines a strategic analysis of the psychophysiological training of service horses in controlling mass disturbances. Based on new methodological approaches, it explores methods for conditioning horses' visual and sensory responses using pyrotechnics and fire, noises of various frequencies, and colored smoke, as well as techniques for maneuvering horses in the formation of a "living wall."

Keywords: psychophysiological training, strategic analysis, methodological approach, living wall technique.

Аннотация: В данной статье рассматривается стратегический анализ психофизиологической подготовки служебных лошадей при обеспечении контроля над массовыми беспорядками. На основе новых методологических подходов анализируются методы закаливания визуальных и сенсорных реакций лошадей с использованием пиротехники и огня, шумов различной частоты, цветного дыма, а также методика передвижения лошадей в форме «живой стены».

Ключевые слова: психофизиологическая подготовка, стратегический анализ, методологический подход, методика «живой стены».

Kirish

Zamonaviy xavfsizlik tizimida otliq politsiya (kavaleriya) birliklari psixologik bosim o'tkazish va olomonni differensiyalash (ajratish) bo'yicha eng samarali kuch hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bitta otliq xodimning vizual maydoni piyoda xodimga nisbatan 3 barobar yuqori, uning massasi va haybati esa olomonda instinktiv ravishda "chekinish" reaksiyasini uyg'otadi.

Biroq, ot tabiatan "o'lja hayvoni" bo'lib, uning asab tizimi har qanday shovqin va kutilmagan harakatga qochish javobini berishga dasturlangan. Ushbu maqolada mazkur instinktning qanday qilib "Active Resistance" (aktiv qarshilik) holatiga o'tkazishning ilmiy asoslari va O'zbekiston sharoitidagi istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Date: 3rd February-2026

Adabiyotlar tahlili

McGreevy, P. (2018). “Equine Behavior”: Muallif otlarda “O‘rganilgan ojizlik” (Learned Helplessness) fenomenini tushuntiradi. Bu O‘zbekistondagi noto‘g‘ri tarbiya metodlarini tuzatish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. [1]

Grandin, T. (2020). “Visual Thinking”: Tadqiqotda otning ko‘zi nima uchun vertikal harakatlanuvchi obyektlardan (masalan, ko‘tarilgan tayoqlar) ko‘proq qo‘rqishi fiziologik isbotlangan.[2]

Litten, P.D. “Training the Police Horse”: Amaliy taktik qo‘llanma bo‘lib, unda otlarni “Pushing” (olomonni surish) usulini o‘rgatishning xavfsiz texnikalari bayon etilgan.[3]

Metodlar va tadqiqot asoslari.

Tadqiqotda RCMP (Royal Canadian Mounted Police) va Britaniya Metropolitan Police akademiyalarining 12 haftalik “Desensibilizatsiya” (sezgirlikni pasaytirish) dasturlari o‘rganildi.

Metodologik bosqichlar sifatida quyidagi metodikalar ko‘rib chiqildi:

- akustik tahlil: otlarning turli chastotadagi shovqinlarga (50 dB dan 110 dB gacha) bo‘lgan fiziologik reaksiyasini (yurak urish tezligi orqali) o‘lchash;
- vizual stimulyatsiya: pirotexnika va rangli tutunlar yordamida otning vizual sensorlarini chiniqtirish;
- guruhli simulyatsiya: otlarni 4, 8 va 12 tadan iborat jonli devor shaklida harakatlantirish metodikasi.

Natijalar va tahlil

Xizmat otlari ommaviy tadbir yoki ijtimoiy tartibsizliklarni nazorat qilishga jalb qilinishidan oldin bir necha tayyorgarlik bosqichlaridan o‘tishi talab qilinadi, Bugungi kunda rivojlangan davlatlar otliq qo‘shin tajribalari quyidagi RCMP ning 12 haftalik tayyorgarlik grafik jadvaliga asoslanadi.[4]

Haft	Mashg‘ulot yo‘nalishi	Stimulyatorlar	Kutilayotgan natija
1-3	Boshlang‘ich moslashuv	Bayroqlar, koptoklar	Vizual qo‘rquvni yengish
4-6	Akustik adaptatsiya	Portlash ovozi, sirena	Shovqindan qochmaslik
7-9	Taktik aloqa	Rezina to‘plar, suv tish	Jismoniy kontaktga kish
10-	Ommaviy simulyatsiya	50-100 kishilik olomon	Strategik manevrlar

Bundan tashqari, otlarni pirotexnika va olovga o‘rgatishning ham 5 bosqichli metodikasi mavjud bo‘lib, bu jarayon maxsus tayyorgarlikni talab etadi.

Xizmat otlari “bombproofing” jarayoniga ya’ni kutilmagan yorug‘lik va portlashga qarshi ijobiy desensibilizatsiya (sezgirlikni pasaytirish) bosqichlaridan o‘tadi.

Date: 3rd February-2026

1-bosqich: Vizual stimulyatsiya.

Ot uzoqdan turib miltillovchi chiroqlar va rangli matolar (bayroqlar) harakatini kuzatadi. Bu bosqichda otning “qochish” masofasi (flight zone) aniqlanadi. Agar ot qochishga urinmasa, unga ozuqa beriladi.

2-bosqich: Akustik tayyorgarlik.

Audio tizim orqali past balandlikda portlash va o‘q ovozlari eshittiriladi. Ovoz balandligi har kuni 5-10 detsibellga oshirib boriladi. Maqsad — otning quloq mushaklari qisqarishini (startle reflex) kamaytirish.

3-bosqich: Nazorat qilinadigan tutun va hid.

Ot tutun mashinalari chiqaradigan sovuq tutun ichiga olib kiriladi. Bu yerda asosiy e’tibor otning hid bilish retseptorlariga qaratiladi. Ot tutun xavfli emasligini, aksincha oddiy tuman ekanligini anglab yetishi kerak.

4-bosqich: Pirotexnika simulyatsiyasi (Flash-Bang).

Otning yonida (dastlab 20-30 metr masofada) maxsus o‘quv petardalari portlatiladi. Chavandoz bu paytda otning jilovini bo‘sh qo‘yishi, lekin o‘zi xotirjamlik signalini uzatishi shart.

5-bosqich: Olovli to‘siqlar.

Ot yerdagi yonayotgan maxsus g‘ovlardan sakrab o‘tishi yoki yonidan o‘tishi mashq qilinadi. Bu bosqichda “lider ot” effekti qo‘llaniladi: birinchi bo‘lib qo‘rqmas ot o‘tadi, qolganlari uning ortidan ergashadi. [5]

Tayyorgarlikning yana bir muhim bosqichlaridan biri otlarning stress darajasini o‘lchash va fiziologik holatini nazorat qilishdan iborat bo‘ladi. Jumladan, kortizol miqdorini tekshirish qo‘llanilayotgan metodikaning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlashga yordam beradi. Bunda otni tinch holatda 10-50 metr, ekstremal stress holatida esa 150 metr va undan uzoqroq masofaga yugurtirilib, so‘lak va qon tarkibidagi kortizol miqdori tekshiriladi. Agar mashg‘ulotdan 30 daqiqa o‘tgach kortizol miqdori pasaymasa, bu otning “surunkali stress” holatiga tushganini va metodika noto‘g‘ri ekanini anglatadi. Otning so‘lagi yoki qonidagi kortizol miqdori stressning asosiy indikatoridir. [6]

Shuningdek, otning yurak urishi orqali ham uning ruhiy holatini aniqlash mumkin. Ya’ni otning yuragi tinch holatida daqiqasiga 30-40, harakat mobaynida 60-80, vahimaga tushgan vaqtda 120-180 marotaba uradi.

Otning psixofiziologik adaptatsiya strategiyalari otning asab tizimi va jismoniy holati o‘rtasidagi bog‘liqligiga asoslanadi:

- dastlabki jarayon: 3-3,5 yoshda otni cho‘chitmasdan, uning tabiiy imkoniyatlarini saqlagan holda mashg‘ulotlarga tayyorlanadi;

- “qochish yoki kurashish” instinktini boshqarish: Chavandozning og‘irligi yosh ot uchun kuchlanish keltirib chiqaradi. Bu holatda otning psixologik xotirjamligini saqlash uchun “yumshoqlik” birinchi darajali vazifa hisoblanadi. Ya’ni qattiqqo‘llik bilan jilovlash otga psixologik zarba bo‘lishi mumkin;

- ovoz bilan boshqarish: harakatlarni tezlashtirish yoki sekinlashtirishda avval ovozli buyruqdan foydalanish, keyinchalik esa bu vazifani oyoq yordamiga o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu otning shartli reflekslarini shakllantirishdagi psixologik metoddir. Bu



Date: 3rd February-2026

usul tartibsizliklar vaqtida ot avtomatik harakatlanishi, har bir qadami “soat kabi” aniq va bir xil bo‘lishi va o‘zini yo‘qotmasligini ta’minlaydi. [7]

O‘zbekiston qurolli kuchlaridagi otliq bo‘linmalar tayyorlov jarayoni tahlili shuni ko‘rsatadiki, bizda ko‘proq jismoniy intizomga (chavandozning buyrug‘iga so‘zsiz bo‘ysunishga) qaratilgan bo‘lib, otning psixologik barqarorligi (autonom xotirjamligi) ikkinchi darajali bo‘lib qolmoqda. “Qattiq qo‘llik” metodikasi ya’ni ot qo‘rqanida jazo qo‘llash otning miyasida qo‘rquv obyekti va og‘riq o‘rtasida bog‘liqlik yaratadi, natijada ot ekstremal holatda agressiv bo‘lib qoladi.

Yo‘l qo‘yilayotgan tizimli xatolar sirasiga statik mashg‘ulotlarning ustunligini ham kiritishimiz kerak. Bunda otlar ko‘pincha tinch maydonda tayyorlanadi, ommaviy tadbirdagi “dinamik tartibsizlik” (hamma yo‘nalishdan keladigan harakat) vaziyati ta’minlanmaydi.

Xulosa

Yuqoridagi fikrlarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- harbiy xizmatga otlarni “Curiosity-Fear Score” (Qiziquvchanlik indeksi) bo‘yicha saralab olinishi kerak. Bunda faqat qiziquvchanlik darajasi qo‘rquvdan ustun bo‘lgan otlar tanlash lozim;

- akustik laboratoriya tashkil etish va poligonlarda maxsus 3D-audio tizimlar o‘rnatish maqsadga muvofiq, Unda nafaqat shovqin, balki olomonning g‘ayritabiiy qichqiriqlari, mashina serenasi, metal va plastik idish zarbalari bilan simulyatsiya qilinishi lozim;

- gormonol tekshiruv: mashg‘ulotlardan keyin otlarning so‘lagidan kortizol miqdorini o‘lchash orqali ularning “ruhiy charchoq” nuqtasini aniqlash kerak. Bu metodologik yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda xizmat otlarini tayyorlashda “fiziologik bosim”dan “psixologik adaptatsiya”ga o‘tish vaqti keldi. Bu nafaqat xodimlar xavfsizligini, balki hayvonlarga nisbatan insoniy munosabatni ham ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. McGreevy, P. (2018). Equine Behavior: A Guide for Veterinarians and Equine Scientists (3rd ed.). Elsevier Health Sciences. (Otlarning asab tizimi, kortizol darajasi va “o‘rganilgan ojizlik” fenomenini tushuntiruvchi fundamental darslik).
2. Grandin, T. (2020). Visual Thinking in Animals: Understanding the Sensory World of Livestock and Equines. New York: Academic Press. (Ushbu asarda otlarning ko‘rish burchagi va vizual qo‘rquvlari ilmiy asoslangan).
3. Litten, P. D. (2015). Training the Police Horse: Methods for Public Order and Crowd Control. London: Kenilworth Press. (Politsiya otlarini ommaviy tartibsizliklarga tayyorlashning amaliy qo‘llanmasi).
4. Royal Canadian Mounted Police (RCMP). (2022). Operational Manual: Training and Selection of the Service Horse. Ottawa: Government of Canada Publishing. (RCMPning xizmat otlarini seleksiya qilish va 12 haftalik desensibilizatsiya dasturi bo‘yicha rasmiy reglamenti).

Date: 3rd February-2026

5. Taktik asos: P.D. Litten va RCMP qo'llanmalari ushbu biologik bilimlarni qanday qilib politsiya amaliyotiga tatbiq etishni (masalan, otni shovqinli devorga aylantirish) o'rgatadi.
6. Biokimyoviy asos: Journal of Veterinary Behaviordagi maqolalar otning qonidagi kortizol va yurak urish tezligi (HRV) orqali uning ruhiy holatini o'lchash metodikasini beradi.
7. Tellington-Jones, L. (2019). The Tellington TTouch Method for Training and Therapeutic Care of Horses. Trafalgar Square Books. (Otlarning stress holatida jismoniy tinchlantirish metodikasi).

